MUHOFAZA QILINADIGAN SUV FONDI YERLARINI MONITORING QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

Kurbanbayeva Shoira Shavkatjonovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Muhofaza qilinadigan suv fondi yerlarini monitoring qilishning nazariy-metodologik asoslari hamda ularni raqamlashtirishning zamonaviy imkoniyatlari tahlil qilanadi. Yer-kadastr ma'lumotlari, geoinformatsion texnologiyalar va masofadan zondlash ma'lumotlarini o'zaro integratsiyalash orqali suv fondi yerlarining holatini muntazam kuzatib borish masalasiga asoslanadi. Xorazm viloyati sharoitida suv fondi yerlarining chegaralari, foydalanish holati va vaqt bo'yicha o'zgarishlarini yagona geoma'lumotlar bazasida aks ettirish monitoringning tezkorligi va boshqaruv qarorlarining axborot ta'minotini yaxshilashi mumkin.

Kalit so'zlar: suv fondi yerlari, monitoring, GIS, masofadan zondlash, geoma'lumotlar bazasi.

Kirish. Yer va suv resurslarini boshqarishning muhim yo'nalishlaridan biri bu-suv fondi yerlarini aniq hisobga olish, ularning chegaralarini aniqlash va foydalanishini nazorat qilishdir. O'zbekiston Respublikasining yer to'g'risidagi qonunlarda suv fondi yerlarining huquqiy maqomi va ulardan foydalanish tartibi belgilangan. Suv xo'jaligi sohasini raqamlashtirish, suv fondi yerlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va geoma'lumotlar bazalarini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ushbu yo'nalishda zamonaviy monitoring tizimlarini joriy etish zarur. Suv fondi yerlarini monitoring qilishda geoinformatsion texnologiyalar va masofadan zondlash

ma’lumotlaridan foydalanish, hududdagi o‘zgarishlarni tezkor aniqlash hamda ularni fazoviy jihatdan baholash imkonini beradi.

Asosiy qism. Suv fondi yerlarini monitoring qilishning metodologik asosini uchta asosiy ma’lumot qatlamini integratsiyalash tashkil etishi mumkin:

birinchisi - yer kadastr va huquqiy ma’lumotlar;

ikkinchisi-suv obyektlari va gidrotexnik infratuzilmaning fazoviy ma’lumotlari;

uchinchisi-masofadan zondlash orqali olinadigan davriy ma’lumotlar.

Ushbu qatlamlarning yagona GIS muhitida birlashtirilishi suv fondi yerlarining huquqiy, fazoviy va funksional holatini kompleks baholash imkonini beradi. Geografik axborot tizimlari fazoviy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, tahlil qilish va kartografik ko‘rinishda ifodalash uchun samarali vosita hisoblanadi. Xorazm viloyatida bunday yondashuvning amaliy ahamiyati yuqori. Viloyatda sug‘oriladigan yerlar va suv xo‘jaligi infratuzilmasining katta hududni qamrab olishi, suv obyektlari hamda ularga tutash yerlarni yagona fazoviy tizimda kuzatishni talab etadi. Taklif etilayotgan metodologiyada monitoringning asosiy bosqichlari quyidagicha belgilanadi:

1. Boshlang‘ich geoma’lumotlar bazasini yaratish;
2. Suv fondi yerlarining chegarasini aniqlash;
3. Masofadan zondlash ma’lumotlarini davriy yangilash;
4. O‘zgarishlarni avtomatik yoki yarim avtomatik aniqlash;
5. Aniqlangan o‘zgarishlarni kadastr ma’lumotlari bilan solishtirish;
6. Natijalarni raqamli xaritalarda vizuallashtirish.

Masofadan zondlash ma’lumotlaridan foydalanish orqali suv yuzasi, yer qoplamasi va antropogen o‘zgarishlarni davriy kuzatish mumkin. Bunday yondashuv monitoring jarayonining tezkorligini oshirish bilan birga, mavjud kadastr

ma’lumotlarini yangilash uchun qo‘shimcha axborot manbaini yaratadi. Nazariy natijasi sifatida suv fondi yerlarini monitoring qilishda kadastr, GIS va masofadan zondlash ma’lumotlarini yagona fazoviy axborot modeliga birlashtirish konsepsiyasini taklif etish mumkin. Amaliy jihatdan esa Xorazm viloyati uchun monitoring indikatorlari, ma’lumotlarni yangilash ketma-ketligi va o‘zgarishlarni kartografik aks ettirish algoritmini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Xulosa. Muhofaza qilinadigan suv fondi yerlarida zamonaviy monitoring tizimini tashkil etish, nazariy-metodologik yondashuvlarni takomillashtirish va raqamli texnologiyalardan unumli foydalanishni talab qiladi. Yer-kadastr ma'lumotlari, geoinformatsion tizimlar va masofadan zondlash ma'lumotlarining yagona fazoviy tizimda integratsiyalashuvi, Xorazm viloyati sharoitida suv ob’ektlari va tutash hududlar holatini uzluksiz kuzatish, o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi- Toshkent 2020
2. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish togrisida”gi qonuni - Toshkent.
3. Longley P.A., Goodchild M.F., Maguire D.J., Rhind D.W. Geographic Information Science and Systems. 4th ed. John Wiley & Sons, 2015.
4. Lillesand T., Kiefer R.W., Chipman J. Remote Sensing and Image Interpretation. 7th ed. John Wiley & Sons, 2015.